O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIK VAZIRLIGI

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA O'QITISH METODIKASI KAFEDRASI

**"KASBIY PEDAGOGIKA"**

**fanidan**

# KURS ISHI

## MAVZU: DIDAKTIK MATERIALLAR VA ULARNING TUTGAN O'RNI

**BAJARUVCHI:** *Kasb ta'limi (Veterinariya) yo'nalishi*
*209 guruh talabasi Sunnatullayev X*

**ILMIY RAHBAR:** *Boboqulov Z*

**SAMARQAND – 2014**

PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

**MUNDARIJA**


| | | |
|---|---|---|
| | **KIRISh**........................................................................................ | 3 |
| | **ASOSIY QISM**…………………………………………………. | 6 |
| **I.** | O'quv-didaktik material hamda vositalarni tayyorlash va ulardan foydalanish…………………………………………… | 6 |
| **II.** | Zamonaviy pedagogika darsliklari va Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talablari mazmuni…………………………………… | 14 |
| **III.** | Darslik, o'quv qo'llanmalarini yaratish va ularning tuzilishi…. | 19 |
| | **XULOSA**........................................................................................ | 31 |
| | **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**................. | 33 |




PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi:** Ta'lim maqsadlarining muntazam tarzda yangilanib turilishi, uzluksiz boyitilishi ta'lim mazmunining yangi modellarini tanlash uchun asos bo'ladigan ustuvor yo'nalishdir. Ta'limning o'rta bo'g'inlarida o'quv-biluv jarayonining xarakteri, metodlari, tashkiliy shakllari hamda vositalarini yangilashga bo'lgan ehtiyojning kuchayishini birinchi navbatda ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, texnologik omillar taqozo qilmoqda. Bugungi kunda ta'lim mazmunida shaxs, jamiyat, fan-texnika, ishlab chiqarish ehtiyojlari chambarchas bog'langan holda o'z ifodasini topmog'i lozim. Shunga ko'ra, ta'lim, fan-texnika, texnologiya, ishlab chiqarish yagona tizimni tashkil etishi kerak. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlarining bosh maqsadi ham asosan shundan iboratdir. Bu tizim istiqbolda O'zbekiston Respublikasining yangi iqtisodiy tarmog'ini taraqqiy etishi uchun xizmat qilishi nazarda tutilmoqda. Chunki, ta'lim jarayonining natijasi shaxs ma'naviy kamolotini ta'minlashi bilan bir qatorda, davlatning iqtisodiy rivojlanishiga ham xizmat qilishi talab etilmoqda. Bu esa ta'lim mazmunining ishlab chiqarish, fan-texnika, madaniyat, ma'rifatni rivojlantirishga xizmat qiladigan yangi, demokratik, shaxsga yo'naltirilgan modelini belgilab berishni taqozo qilmoqda. Bu model birinchi navbatda o'qitish jarayonining tarbiyaviy imkoniyatlarini va o'quvchilarda hosil bo'ladigan muayyan bilim, ko'nikma, malakalardan ijtimoiy hayotda samarali foydalana olish imkoniyatini kengaytiradi. Bu o'z navbatida o'quvchi shaxsini bir butun ijtimoiy birlik sifatida shakllantirish jarayonini tezlashtiradi. Ta'lim mazmunining yangi modelini tanlashda jamiyat va shaxs hayotini rivojlantirishning quyidagi asosiy ikki yo'nalishiga tayanish lozim:

1. Global, umummilliy hamda huquqiy muammolarni hal qilish orqali jamiyat a'zolarining hayotiy faoliyatlarini ta'minlash.
2. Tobora rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga faol kirishish xuquqini ta'minlaydigan, ilmiy-texnika hamda texnologiyalardan foydalana oladigan yuksak texnologiyalarni yaratish orqali dunyo bozorini



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

zabt etish salohiyatiga ega bo'lgan yosh avlodni, kasb-hunar va ilm-fanning sara vakillarini tayyorlashga erishish.

Bu o'z navbatida o'quvchilarga taqdim etiladigan bilimlarni bir butun izchil tizim sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Bilimlarni yaxlit tizim sifatida taqdim etayotganda, dastlab mazkur tushunchalar fan yoki ishlab chiqarish tarmog'iga xosligini nazarda tutish lozim. Shundagina ta'lim, fan-texnika hamda ishlab chiqarish orasida uzviy aloqadorlik vujudga keladi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlari tobora rivojlanayotgan hozirgi sharoitda ta'lim, fan va texnologiya, ishlab chiqarishning uzviy aloqadorligi asosida shakllantirilgan ta'lim mazmunining yangi modelini tanlash davlatning pedagogika fani oldiga qo'yayotgan ijtimoiy buyurtmasi hisoblanadi. Bu o'rinda o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlar o'quv jarayonining natijasi sifatida faqat ularning o'zlarini har tomonlama rivojlantirib qolmasdan, balki ilm-fan, texnologiyalar, ishlab chiqarish, bir so'z bilan aytganda, butun jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy-demokratik jihatdan rivojlantira olishi kerak. Shuningdek, ta'lim jarayonida o'quvchining har tomonlama savodxonligi, ma'lumotliligi, madaniyatliligi, huquqiy-iqtisodiy bilimdonligi, ijtimoiy hayotga tayyorlik darajasi ta'minlanishi kerak.

Bunda avvalambor, O'zbekistonning jahon axborot maydoniga chiqayotganligini e'tiborga olish kerak. Turli darajadagi axborot manbalaridan foydalanishda, ayniqsa, o'quvchi yoshlar va talabalar faollik ko'rsatmoqdalar. Shuning uchun ham ta'lim jarayonida ularga axborot manbalaridan olingan ma'lumotlarga xolis, mentalitet hamda milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan yondashish ko'nikmalarini qaror toptirish lozim. O'quv-biluv jarayonida o'quvchilarni olingan axborotlarni mustaqil tahrir qilish, ularga xolis fikr bildirish, zararli odatlar, buzg'unchi g'oyalar, ekstremistik qarashlarga qarshi murosasizlikka odatlantirib borish bugungi kunda juda muximdir. Buning uchun esa birinchi navbatda o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy g'urur, fidoiylik, safarbarlik kabi tuyg'ularni kuchaytirish lozim.

**Mavzuning maqsad va vazifalari:** Yangi o'quv texnikasi qisqa muddat ichida muayyan darajada ta'limning xarakteri va sifat natijalarini



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

o’zgartirmoqda. Bunday o’zgarishlarni yangi o’quv jihozlari, kompyuter texnikasi mavjud bo’lgan maktablarning o’quvchilari faoliyati misolida yaqqol ko’rish mumkin. Bugungi kunga kelib ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan o’quv jarayonining didaktik manzarasi tubdan o’zgardi. Ta’lim jarayonida didaktik materiallar ahamiyati va ularning tutgan o’rni o’rganishdan iborat.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun oldimizga quyidagi vazifalarni quydek:

- O’quv-didaktik material hamda vositalarni tayyorlash va ulardan foydalanishni;
- O’quv va didaktik materiallarni tayyorlashni;
- Zamonaviy pedagogika darsliklari va Davlat ta’lim standartlarida belgilangan talablari mazmunini;
- Darslik, o’quv qo’llanmalarini yaratish va ularning tuzilishini turli adabiyotlardan o’rganish va tegishli xulosa chiqarish.

**Ishning metodologik asoslari:** Davlatimizning ta’lim sohasidagi qarorlari, Prezidentimiz I.A.Karimovning Oliy Majlisning IX sessiyasida so’zlagan «Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori» nomli nutqi, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda «Barkamol avlod yili» Davlat dasturi, «Pedagogika» va «Didaktika» faniga oid darslik va qo’llanmalar.

**Ishning tarkibiy tuzilishi:** Kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

# I. O’QUV-DIDAKTIK MATERIAL HAMDA VOSITALARNI TAYYORLASH VA ULARDAN FOYDALANISH

Hozirgi paytda ta’lim - tarbiya tizimida o’qituvchining tahsil oluvchilar bilan jonli muloqot va munosabati muhim ahamiyatga ega bo’lganligiga qaramay, u yagona axborot manbayi bo’la olmasligi hayotiy haqiqat. Shuning uchun ham, ta’lim - tarbiya ishini osonlashtiradigan va samaradorligini oshirish omillaridan keng foydalaniladi. Ana shunday omillardan biri o’qitishning texnik vositalaridir.

O’qitishning texnik vositalari deganda ta’lim - tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlik faoliyatini ta’minlab, uning samaradorligini oshirish, ta’minlash maqsadida foydalaniladigan qurilmalar tizimi tushuniladi.

Barcha o’qitishning texnik vositalarini shartli ravishda uch asosiy guruhga bo’lish mumkin.

1. Audiovizual vositalar (kinoproyeksiya, diaproyeksiya va epi proyeksiyalar, ovoz yozib olish, televideniye, radio);
2. Jihozlar, uskuna va asboblar;
3. Dasturli (kompyuterli) ta’lim vositalari.

O’qitishning texnik vositalaridan ta’lim - tarbiya jarayonining tashkil etuvchi komponentlari bilan uzviy bog’liqlik va munosabatlami hisobga olgan holda foydalanish zarur. Aks holda mashg’ulot samarasini umuman yo’qqa chiqarish ham mumkin.

Mashg’ulotda o’qitishning texnik vositalaridan foydalanish yordamchi xarakterga ega bo’lib, ularni tanlash, ishlatish vaqti va joyi darsning umumiy rejasida maqsadga muvofiq ravishda belgilanadi.

Hozirga paytda ta’lim - tarbiya jarayonida o’qituvchining jonli muloqoti muhim ahamiyatga ega bo’lganligiga qaramay, u yagona axborot manbayi bo’la olmasligi hayotiy haqiqat.

O’quv xonalarini o’qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda quyidagi texnik - pedagogik talablar qo’yiladi:



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

1. O'quv xonalarini o'qitishning texnik vositalari bilan jihozlashda o'quv jarayonida ulardan majmuaviy foydalanishni hisobga olish zarur.

2. O'quv xonasining istalgan joyidan yaxshi ko'rish va eshitish imkoniyatining mavjudligi.

3. O'quv xonasida, shovqin, yorug'lik, namlik kabilar me'yorini ta'minlash.

4. Oddiy, arzon, xavfsiz, uzoq muddat buzilmay ishlashi;

Ta'lim - tarbiya ishida texnik vositalardan foydalanish, avvalo, didaktik prinsiplarga amal qilishni ko'zda tutadi. Masalan, ko'rsatmalilik prinsipi real obekt bilan mavhum tasavvurning birligini ifodalaydi.

Real obekt yoki uning tasvirini ko'rish (idrok etish) inson uchun uni bilishning dastlabki va eng oddiy akti hisoblanib, aniq tasavvurlar va mavhum tushunchalar hosil qilish uchun asos vazifasini o'taydi.

Ta'lim - tarbiya ishida ko'rsatmalilik tamoyiliga amal qilish zaruriyati insonning fikrlash xususiyatidan kelib chiqadi. Insonning fikrlash xususiyati ma'lumdan mavhum tomon rivojlanadi. Tushuncha va mavhum qonun-qoidalar aniq kuzatishlarga asoslansa, ularning mohiyat mazmuni ancha oson va tez shakllanadi. Inson tafakkurining rivojlanishi uning yoshiga, hayotiy tajribasi kabilarga bog'liq bo'lib, ta'lim - tarbiya jarayonida hisobga olinishi, aniq dalillar va obrazlardan ajralib qolmasligiri talab etadi.

**Tasviriy ko'rsatmalardan quyidagi hollarda foydalaniladi:**

- o'rganiladigan obekt juda katta yoki kichik bo'lganda:
- o'rganiladigan obektni bevosita ko'rish mumkin emas:
- tushuncha va xulosalarni grafik tarzda ifodalash mumkin bo'lganda:
- murakkab obektlarni soddalashtirish yoki ishlash tartibini ko'rsatish zarur bo'lganda:
- obektning eng xarakterli zamon va makondagi holatni qayd etish va ko'rsatishda va boshqalar.

**Ko'rsatmali qo'llanmalarga quyidagi talablar qo'yiladi:**

- barcha talabalarga yaxshi ko'rinadigan hajmda bo'lishi:
- o'quv xonasining istalgan joyidan bemalol o'qilishi:



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

- muhim detallar va yozuvlarning diqqatni o’ziga tortuvchi rang bilan alohida bo’yalishi:
- tasvirlar imkon qadar obektning asl rangiga mos bo’lishi:
- tasvirlarning estetik did bilan rasmiylashtirilishi:
- matnning haddan tashqari ko’p bo’lmasligi:
- tasvirlangan obektlarning tabiiy vaziyatda ko’rsatilishi:
- masshtabga rioya qilishi:
- arzon, qulay, uzoq vaqt o’z holatida saqlanishi va shu kabilar.

Shu o’rinda ko’rsatmali qo’llanmadan foydalanish maqsad bo’lmay, balki natijaga erishish vositasi ekanligini unutmaslik zarur.

Ko’rsatmali qo’llanmalardan foydalanishda o’quv materialining mazmuni va vaqtini hisobga olish zarur. Mashg’ulotda ko’rsatmali qo’llanmalardan haddan tashqari ko’p foydalanish ham yaxshi natija bermaydi. Namoyish qilinayotgan materiallarni idrok etish jarayonida tahsil oluvchilar sezgi organlarini (ko’rish, eshitish, hidlash, ta’m bilish) ko’proq jalb etish zarur. O’qituvchining so’zi bilan ko’rsatmalilikning uyg’unligi katta ahamiyatga ega. Ko’rsatmali qo’llanmadan foydalanilganda beriladigan izoh tahsil oluvchilar diqqat-e’tiborini asosiy materiallarga qaratilishini ko’zda tutadi.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad. maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o’rin tutadi. Eng muhimi shundaki, amaliyot o’qituvchisi o’quv va ko’rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo’lishi lozim. Masalan: tikuv mashinasi ishida sodir bo’ladigan nuqsonlarni bartaraf eta bilishi, asosiy sozlanishlarni bajarishi va mashinani ishchi holatiga keltira olishi kerak, ya’ni o’z kasbiy sohasining mohir ustasi bo’lishi lozim. Amaliyot o’qituvchisi o’z kasbiy sohasi uchun qanday materiallar, qanday yangiliklar borligiga, shuningdek, qaysi maxsus sohalarda uning o’zi yangiliklar qila olishi mumkinligi yuzasidan umumiy tushunchaga ega bo’lishi lozim. Ko’pincha o’qituvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va proyektor slaydlari kabi



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

vizual vositalarni o’zlari ishlab chiqadilar.

## O’quv va didaktik materiallarni tayyorlash

Nazariy va amaliy mashg’ulotlar uchun manba sifatida ishlatiladigan vositalarimiz quyidagicha farqlanadi:

Ko’pincha o’quv materiallari bir paytning o’zida didaktik materiallar sifatida, ya’ni o’qitish, o’rganish uchun ishlatiladi.

| | |
|---|---|
| O’quv materiallari | Amaliyot o’qituvchilari tomonidan darsni ko’rgazmali va bilim berish uchun qo’llaniladi |
| Didaktik materiallari | Talabalarning o’rganishi uchun o’qituvchi tomonidan tayyorlanadi |

O’quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o’qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mashg’ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi.

Agar tayyor vositalar yo’q bo’lsa, u holda bu vositalarni o’qituvchining o’zi tayyorlashiga to’g’ri keladi.

| **Turi** | **Ishlatish uchun ko’rsatmalar** |
|---|---|
| O’quv kitoblari | Kitobning muayyan betlarini belgilab. dars rejasiga kiritiladi |
| Tarqatma materiallar | O’quv kitoblaridan yoki boshqa manbalardan saylanma nusxalar tayyorlanadi va ko’paytiriladi. |
| Doska tasvirlari | Mavzu va grafiklarga eskizlar tayyorlash |
| Slaydlar | Nusxa ko’paytirish apparatida yoki kompyuterda tayyorlanadi |
| Modellar | Ustaxonadagi har bir predmet yaroqli: ham yaxshi, ham yomon mahsulotlar ko’rsatilishi lozim. |



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Amaliy mashg'ulotlar yoki amaliy ish jarayonlari paytida amaliy ko'rsatmalar bilan to'ldirilgan quyidagi vositalardan foydalaniladi:

| **Turi** | **Ishlatish uchun ko'rsatmalar** |
|---|---|
| Texnik chizmalar (kinematik sxemalar, konstruktiv chizmalar) | buning uchun asl nusxalar maxsus jildlarda to'planadi. |
| Ekspluatasion ko'rsatmalar | nusxalar tarqatmalar va slaydlar tayyorlash uchun ishlatiladi. |
| Ish rejalari va boshqa hujjatlar | faqat nusxalar ishlatiladi, asl nusxalari esa toza saqlanadi |
| Modellar, real jihozlar, asboblar va mahsulotlar | yaroqli va yaroqsiz jihozlar, yaxshi va yomon mahsulotlar sifatiga nisbatan yuzaga kelgan farqni ko'rsatib berishi mumkin. |

O'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda amaliyot o'qituvchisi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarni inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

- ish varaqalari, tarqatmalar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;
- yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;
- baholash varag'i. nazorat qog'ozi;
- ish rejalari, tashkiliy hujjatlar.

Nazariy darslar o'tkazish paytida amaliy ko'rsatmalar berilgan quyidagi vositalar ishlatiladi:

O'qituvchi uchun materiallar nafaqat sohaga tegishli ma'lumotlarni, balki tashkiliy ishlar, usul va natijalarni baholash borasidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.

Talabalar uchun materiallar esa qoida bo'yicha faqatgina sohaga tegishli jihatlarni o'z ichiga oladi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Didaktik materiallar talabalarga mo'ljallangan bo'lsa, o'qitish materiallardan farq qilishi mumkin. Masalan: topshiriqlar varaqlari, savolnomalar, yo'naltiruvchi usul savollari va muayyan tarqatma materiallar.

**Talabalarga tarqatiladigan materiallar tarkibida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:**

- sodda tilda yozilgan o'quv matnlari
- matnlarda bo'sh qoldirilgan joylar (talabalar tomonidan to'ldirilishi uchun)
- talabaning erkin fikrlashiga imkoniyat beruvchi savollar
- ustaxonada ishlash uchun mo'ljallangan, ish bosqichlari ko'rsatilgan tushunarli chizmalar (eskizlar) va jadvallar
- material, jihoz, asbob-uskunalar va yordamchi vositalar haqida ma'lumotlar.

Matn tayyorlash bo'yicha eng yangi usullardan biri bu matnlarni ranglar bilan ajratish sanaladi:

-oq qog'ozlar: mazmuniy jihatlar borasida matnlar (o'qituvchi va talabalar uchun)

-yashil qog'ozlar: talabalarga topshiriqlar

-qizil qog'ozlar: o'qituvchining uslubiy hujjatlari va topshiriqlarning javob varaqalari

Ranglarni kodlash hujjatlardan foydalanishni yengillashtiradi.

Xuddi shu usuldan seminar hujjatlarini tayyorlashda ham foydalaniladi.

O'qitish jarayonidagi eng muhim vositalar doskalar, flipchartlar va kodoskop (proyektor) hisoblanadi. O'qituvchi bu vositalar orqali ko'rgazmali tus beriladigan namunalar yaratishi kerak. Bo'r bilan yoziladigan doska uchun avval qog'ozda ishlangan va matnlar bilan to'ldirilgan suratlar, flipchartlar uchun esa qoida bo'yicha, taqdimot namunalari bo'lishi mumkin. Proyektor slaydlari to'g'ridan-to'g'ri tayyorlanishi mumkin.

Doska suratlari uchun namunalar, asosan, o'quv kitoblaridan olinishi yoki shaxsiy qarashlardan kelib chiqqan holda tayyorlanishi mumkin. Bunda ko'p vaqt sarf etmasdan, oddiy shakllar orqali tuzilgan grafiklar, sxemalar. diagramma va shu



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

kabilarni doskaga chizish mumkin. Matnlar uchun namunalar tayyorlash shart emas.

Shunga o'xshash tarzda flipchart suratlarini tayyorlash mumkin. Bu usul nazariy dars yoki amaliy mashg'ulot tayyorlanishini yengillashtiradi.

Flipchart bloklarini birga olib yurish mumkinligi tufayli tasvirlar qog'ozlarga to'g'ndan-to'g'ri tushiriladi.

Proyektor slaydlari qo'lda. fotonusxalar yoki kompyuter yordamida maxsus shaffof plyonkada tayyorlanadi.

Slaydlarni tayyorlash uchun:

- oddiy asetat qog'ozi yoki shaffof sun'iy qog'oz;
- nusxa olish mumkin bo'lgan maxsus qatlamli slaydlar;
- flomaster, permanent va suvda eruvchan slaydlarni tozalash uchun spirt;
- surat chizish moslamalari (shablon, chizg'ich va boshqalar)lar ishlatiladi.

**Slaydlarni qo'lda tayyorlash uchun:**

- surat yoki matn qog'ozga eskizlanadi
- slaydni uning ustiga qo'yib, skrepka bilan mahkamlanadi
- namunadagi surat slaydga ko'chiriladi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

## II. ZAMONAVIY PEDAGOGIKA DARSLIKLARI VA DAVLAT TA'LIM STANDARTLARIDA BELGILANGAN TALABLARI MAZMUNI

Pedagogik nashrlarda "darslik" tushunchasi tegishli fanga oid ilmiy bilimlar asoslarini dasturga mos xolda kiluvchi kitob deb ta'riflanadi. Darslik dastur mazmunini anik kurinishda ifoda etadi va bir vaktning uzida unga teskari ta'sir kursatgan xolda uni yana xam aniklashtiradi, rivojlantiradi va takomillashtiradi.

Darslik bu pedagogik tizimning axborotli modelidir. Nima uchun model? Chunki xar bir ukuv jarayo ning ma'lum boskichlari kursatilgan buladi. Darxakikat, ukuvchilar darslik mavzularini ukib, undagi topshiriklarni ma'lum xarakatlar kurinishida bajarishadi: tekshiradi, yechadi, javob beradi va xakozo. Bu xarakatlar darslik matnlarida ochik yoki yashrin shaklda berilishi mukin. Bu, demak; darslikda ma'lum pedagogik jarayon u yoki bu xolatda bayon etilishidan dalolat beradi. Shunday kilib pedagogik jarayon, muallif tomonidan darslikda ma'lum darajada aks ettirilgan moddiy mavudlik, yangilikdir.

Nima uchun darslik - pedagogik tizim modeli? Chunki pedagogik jarayon xar doim anik boshkariladigan tizim doirasida amalga oshiriladi, darslik esa uzida pedagogik tizimning aloxida xususiyatlari va tomonlarini aks ettiradi Afsuski, xozirga kadar olimlarimiz darslikdan pedagogik tizim modeli sifatida, ya'ni bulgusi ukuv-tarbiyaviy jarayonni modellashtirish vositasi ekanligidan foydalanish-maydi. Shuni aloxida kayd etish lozimki, darslik uz-uzidan pedagogik tizimni modellashtirmaydi va ukuv jarayoniga aylantirmaydi bularning xammasini pedagog darslikdan foydalangan xolda amalga oshiradi.

Nixoyat, biz nima uchun darslik-pedagogik tizimning ***axborotli*** modeli deb atadik? Bu savolga javob sodda: chunki model axborotlarning ma'lum bayoni tarzda beriladi.

Shunday kilib, darslik avtonom ta'lim vositasi sifatida pedagogik tizim elementlarining axborotli modeli xisoblanib pedagogik jarayonni boshkarishni avtomatlashtirish uchun muljallangandir.

Darslikda pedagogik tizimni modellashtirish jarayoni va ketma- ketligi kuyidagi tartibda borishi mumkin:



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

-dastlab pedagogik tizim mavjudligini maksadi aniklanadi va tulik yoritiladi;

-keyin kuyidagi umumdidaktik tamoyillarni xisobga olgan xolda ta’lim mazmunini yoritish amal- ga oshiriladi: ketma-ketlik, tushunarlilik, ilmiylik, kursatmalilik. Ta’lim mazmunida shunday axborotlar bulishi kerakki, ular ukuvchi uzlashtirayotgan faoliyatning yunaltirilgan asoslarini (koida, ta’rif, xususiyat, tamoil, algoritm, metod) tashkil etilishi zarur. Ta’lim mazmunini tanlash uning maksadiga mos xolda darslikda yoritilishi kerak;

- darslikni yaratishning keyingi boskichi va unda pedagogik tizimning aniklanishi ***didaktik jarayonlarni*** tanlash va ishlab chikishdan iborat. Bu bos- kich darslikda ukuvchilarning bilishiga karatilgan xarakatlarini ma’lum tizimda ifodalashga va ta’lim maksadiga mos xolda bu faoliyatni bajarishni ta’minlashga tegishlidir;

- darslikni yaratishning yakuniy boskichi ta’limning ***tashkiliy shakllarini*** chegaralash xisob- lanadi. Darslikda mavzular buyicha ukuvchilar egallashi lozim bulgan bilim, kunikma va malakalar tizimi ukitishning makbul shakllariga (dars, amaliy mashgulot, masala, topshirik, uy ishi va xokazo) mos xolda yoritilishi kerak. Bu ukituvchi va ukuvchilarning darslikdan foydalanish faoliyatini tartibga solib turadi.

Yukorida biz darslik yaratishga yangicha-tizimli yondoshish yulini kursatishga xarakat kildik. Umuman olganda darslikni takomillashtirish ikki yunalishda borishi mumkin: 1-mazmunini yangilash, 2-yangi didaktik yechimlarni izlab topish.

Zamonaviy darslik mazmunini ukuvchi (talaba) larda uzining uzbek millatiga mansubligini anglab yetishi, davlatimizning tashki va ichki siyosatiga sodikligini tarbiyalash kerak. Bu degan suz mamlakatimizda mustakillik yillarida ruy berayotgan ijtimoiy-iktisodiy isloxotlar, ma’naviy-ma’rifiy soxadagi yutuklar darslikda uz urnini yetarlicha topishi kerakligini kursatadi. Bu nafakat ijtimoiy-gumanitar sikldagi fanlarga, balki tabiiy, matematika fanlariga xam bir xilda tegishlidir.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Darslik mazmunini takomillashtirishda uning politexnik jixatlarini chukurlashtirish aloxida axamiyat kasb etadi. Darsliklar u yoki bu ixtisoslikka mos xolda ukuvchi (talaba) larni zamonaviy ishlab chikarishning asosiy yunalishlari, uning bosh soxalari, yetakchi kasblari, yangi texnika va texnologiyalari, mexnatni tashkil etish asoslari bilan tanishtirish kerak.

Didaktik nuktayi nazardan uz yechimini darslikda topishi kerak bulgan muammolar katorida ukuv predmeti sikllari buyicha ichki boglanishga xam, predmetlararo boglanishni ta'minlashga xam aloxida e'tibor karatish, darsliklarga kiritilayotgan yangi tushunchalarni xam obdon uylab, tushunarli bulishini xisobga olib kiritishi kabi masalalarni kursatish mumkin.

Shunday kilib, yaratilgan darslik ma'lum fan soxasining ukuv uslubiy majmuasidan( ukuv dasturi, kullanma, ukitish vositalar va boshka) markaziy o'rnini egallashi uning zamonaviyligini ko'rsatib beradi.

**Davlat ta'lim standartlarida pedagogika darsliklari mazmuni quyidagi yo'nalish va tushunchalarni qamrab olishi belgilab qo'yilgan:**

**Umumiy pedagogika:**

*pedagogika mutaxassisligiga kirish:* O'zbekiston Respublikasi kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta'lim to'g'risidagi yangi qonun va pedagogik faoliyat turlari. Pedagogik kasb istikbollari. Pedagogik faoliyat. Pedagogik faoliyatning gumanitar tabiati. Bola shaxsi. Pedagogik madaniyat. Pedagog kiyofasini belgilovchi shaxsiy sifatlar. Pedagogik qobiliyat. Pedagogik pozisiya. Pedagogik bilim va malaka. Kasbni o'rganish yo'llari. Pedagogika ta'lim muassasalari. Pedagogika kasbni egallash mazmuni, tuzilishi, shakli va uslubi. Individual kasb ta'limi dasturlari. O'z-o'zini rivojlantirish usullari.

*Umumiy pedagogika asoslari:* ta'limning sosial tabiati, uning umuminsoniy tarixiylik muayyan xarakatlari. Ta'lim va tarbiyada umuminsoniylik milliylik va individuallik. Talim va tarbiyaning uzluksizligi. Individ, shaxs va individuallik. Shaxsning biologik va sosial faktorlari, shaxs rivojlanishining tabiiy va sosial omillari. Pedagogikaning inson to'g'risidagi fanlar sistemasidagi o'rni. Pedagogik tadqiqotlar metodlari va metodologiyasi.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

Ta’lim mazmuni shaxs rivojlanishining va uning ichki madaniyatining shakllanishi quroli sifatida Pedagogik jarayon o’ziga xos sistema yaxlitligi. Hodisa sifatida pedagogik jarayon konuniyatlari. Yaxlit pedagogik jarayonda o’kitish. O’kuv-tarbiya kollektivi-yaxlit pedagogik jarayon shakli sifatida Yaxlit pedagogik jarayonda tarbiya. Shaxs ichki madaniyati yaxlit pedagogik jarayonda shakllanishi. Pedagogik jarayonning tashkil etish shakllari. Yaxlit pedagogik jarayonni amalga oshirish metodlari.

**Ta’lim tarixi:**

ta’lim, pedagogik talimot tarixi. Tarbiyaning tarixiy-madaniy xarakteri. Insonning har tomonlama rivojlanishi haqidagi g’oyalarning paydo bo’lish tarixi. Erkin tarbiya konsepsiyasi. O’qitishni rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi g’oyalar. Pedagogikaning mustaqil fan sifatida paydo bo’lishi.

VII asrgacha Shark mutafakkirlari pedagogik g’oyalarining rivojlanishi. Pedagogik fikr, tarbiya va maktabning VII-XIV asrlarda rivojlanishi. Movarounnahrda pedagogik ta’limotning rivojlanishi. XVII-XVIII va XIX asrning birinchi yarmidagi pedagogik g’oyalar. XIX asrning ikkinchi yarmida, XX asrda ta’limning rivojlanish xususiyatlari. Mustaqil O’zbekiston Respublikasiningta’lim tizimi.

**Pedagogik tizimni boshqarish asoslari:**

sosial-pedagogik sistemalar, tushuncha va turlari. Ta’lim tizimi. Ta’lim muassasalari sistema sifatida O’zbekiston Respublikasida ta’lim sistemasi. Ilmiy boshqarishning asosiy tushunchalari. Boshqaruv to’g’isidagi fikrlar evolyusiyasi. Sistema va situasial yondashuv, boshqaruv metodologiyasi sifatida. Amaliy faoliyat va rivojlanishni boshqarish. Sosial kollektivni boshqarish asoslari. Pedagogik kolleksiya va uning taraqqiyoti. Pedagogik boshkaruvning asosiy funksiyalari. Ta’lim muassasalarini boshqarishning o’ziga xos xususiyatlari. Pedagogik kadrlarni attestasiyadan o’tkazish.

**Ijtimoiy pedagogika va pedagogik sosiologiya:**

***ijtimoiy pedagogika:*** ijgimoiy pedagogikaning tibbiy-psixologik, sosiologik, madaniy-tarixiy, etnografik va falsafiy negizlari. Ijgimoiy



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

pedagogikaning muammolari va ularning turli tarixiy davrlarda hal etilish yo'llari. Hozirgi sharoitda ijtimoiy pedagogikaning mustaqil fan sifatida rivojlanishi. Sosial ishlar metodlari: kommunikativ texnika, huquqiy jihatdan qurollantirish, tibbiy sosiologik, ijtimoiy-psixologik va x.k. Sosial ishlar texnologiyasi: tashxis, adaptasiya, reabelitasiya, qariyalarni ta'minlash va yordam berish, xizmat ko'rsatish, konsultasiya berish, innovasiya, prognoz.

*Pedagogik* ***sosioloiya*** ijgimoiy tarbiya va ta'lim yaxlit sistema sifatida. Ijtimoiy pedagogikaning boshqa fanlar sistemasidagi o'rni va uning amaliy ahamiyati. Sosial institutlar hamda ta'lim va tarbiyaning konstitusial soxalari. Oila tarbiyasi muammolari taxlili: tarbiya uslubi, «Og'ir oiladagi» bolalar va h.k.

Pedagogik kollektivni tadqiq etish: sosial-psixologik muxit, pedagogning sosial portreti, uning pedagogik innovasiyalarga tayyorgarligi, innovasiyalarning ijtimoiy natijalari. O'quvchilar kollektivining sosiologik tahlili: kollektivning shakllanishi, shaxsning kollektiviga moslashuvi, muloqot muammolari. Voyaga yetmagan huquqbuzarlar xamda tarbiyasi og'ir bolalar xulqidagi og'ishlarning sabablari va ularni o'rganish dinamikasi. Yoshlarning kasb tanlashini tahlil etish: kasb tanlab olishga tayyorligi va ijtimoiy hozirligi.

Tadqiqot metodlari va dasturlarini ishlab chiqish sosial - pedagogika muassasalar sistemasini rivojlantirishni rejalashtirish va istiqbolni belgilay olishning sosiologik metodlari.

**Oila pedagogikasi:**

Oila tarbiyasining maqsadi, vazifasi, metodlari. Oilada aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik tarbiya sharoitlari, otalik va onalik, ota-onalar obro'si, oila a'zolarining shaxsni shakllanishida ta'siri. O'g'il va qiz bolalar tarbiyasining o'ziga xos xususiyatlari, oz va ko'p bolali oilalarda bolalar tarbiyasi, yolg'iz o'gay bola tarbiyasi, bola tarbiyasi, egizaklar tarbiyasi, tarbiyada etnik an'analar, tarbiyada oila va ta'lim-tarbiya maskanlarining o'zaro ta'siri, oila pedagogikasini o'kitish metodikasi, nazariy va mustakil ta'lim, o'quv yuklamalarini rejalashtirish, o'quv-metodik ilmiy va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, reyting - nazorat sistemasini tashkiliy va metodik ta'minoti.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

**Xalq va qiyosiy pedagogika:**

*xalq pedagogikasi:* O'zbekiston xalk pedagogikasi xususiyatlarini o'rganish. Xalq pedagogikasining yo'nalishlari. Uning shakllari, bo'lajak o'kituvchini tayyorlashda ulardan foydalanish. Xalq pedagogikasi va folkpor.

*Qiyosiy pedagogika ku*rsining vazifasi va mazmuni. Turli tarixiy davrlarda pedagogika rivojlanishining tadqiqi. Tarixiy hujjatlarni taqqoslash va tahlil qilish. Qiyosiy pedagogika prinsiplari. Xalq va ilmiy pedagogikaning qiyosiy tahlili. Pedagogikada milliylik va baynalminallik, rivojlangan davlatlar pedagogikasini qiyosiy o'rganish.

**Pedagogik fanlarni o'qitish metodikasi va pedagogik texnologiya:**

*pedagogikani o'qitish metodikasi:* nazariy va tajriba sintezi. Pedagogik jarayon tadqiqi o'qitishning mazmuni, shakli va metodlari, o'qituvchi va ta'lim oluvchi faoliyati birligi sifatida. Bo'lg'usi o'qituvchining yuqori professional saviyasini ta'minlovchi o'qitishdagi prinsiplari, shakllari va metodlari.

*Pedagogik texnologiya* pedagogik texnologiya haqida tushuncha. Ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakl va metodlariga qo'yiladigan talablar. O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va ta'limning rivojlanishi.

Ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsi hamda shaxsiy sifatlarining tuzilishi. Ta'lim jarayonida bilim, qo'nikma va malakalarni o'zlashtirilishi.

Innovasion faoliyatning tuzilishi va pedagogning innovasion faoliyati. Pedagogik texnologiyaga ilmiy-nazariy yondashuv: pedagog-ta'lim beruvchilarning pedagogik texnologiya turlari xakidagi tushunchalarini aniqlash. YuNESKO tarafidan berilgan pedagogik texnologiya haqida tushuncha. Pedagogik texnologiyaning ilmiy asoslari, turlari va asosiy sifatlari. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar: differensial ta'lim, individual ta'lim, dasturlashgan ta'lim, ta'limda axborot texnologiyalari, mualliflik texnologiyalari, ta'limni tabaqalashtirish texnologiyalari.



PDF created with pdfFactory Pro trial version www.pdffactory.com

## III. DARSLIK, O'QUV QO'LLANMALARINI YARATISH VA ULARNING TUZILISHI

Sobiq tuzum darsliklaridan farqli o'laroq, hozirgi kungi darsliklar millat, hudud, tarix, qadriyat masalarini hisobga olgan holda mazmuni boyitilib yozilmoqda.

